

KO'HITANG TIZMASI VA SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI FLORASI TARKIBIDAGI APIACEAE OILASINING TARQALISHI

Xudoyberdiyev Foteh Xudoynazarzoda

Termiz davlat unversiteti magistranti

Annotatsiya: Apiaceae oilasining Ko'hitang tizmasi va Surxon davlat qo'riqxonasi florasida tarqalishi va inson hayoti uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi keltirilgan. Ko'hitang tizmasi florasida tarkibidagi *Apiaceae* oilasining 33 ta turkumga mansub, 66 ta turni tashkil etadi. Bu bir nechta adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlandi. Surxon davlat qo'riqxonasi florasida esa *Apiaceae* oilasining 21 ta turkumga mansub, 38 ta turni tashkil etishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Apiaceae, Ko'hitang tog'i, Surxon davlat qo'riqxonasi, turkum, tur.

Аннотация: Представлено распространение семейства Apiaceae во флоре хребта Кухитанг и Сурханского государственного заповедника и его значение для жизни человека. Флора хребта Кухитанг состоит из 66 видов, относящихся к 33 родам семейства Apiaceae. Это было определено в результате анализа нескольких литературных источников. Флора Сурханского государственного заповедника была определена как состоящая из 38 видов, относящихся к 21 роду семейства Apiaceae.

Ключевые слова: Apiaceae, хребет Кухитанг, Сурханский государственный заповедник, роды, виды.

DISTRIBUTION OF THE APIACEAE FAMILY IN THE FLORA OF THE KOHITANG RANGE AND SURKHAN STATE RESERVE

Khudoyberdiev Fateh Khudoynazarzoda

Master's student at Termez State University

Abstract: The distribution of the Apiaceae family in the flora of the Kohitang Range and Surkhan State Reserve and its importance for human life are presented. The flora of the Kohitang Range consists of 66 species belonging to 33 genera of the Apiaceae family. This was determined as a result of an analysis of several literatures. The flora of Surkhan State Reserve has been identified as consisting of 38 species belonging to 21 genera of the Apiaceae family.

Keywords: Apiaceae, Kohitang Range, Surkhan State Reserve, genera, species.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan va global ekologik muammolarga to'la dunyoda, insonlar uchun shu global muammolardan biri sifatida o'simliklarni asrab-avaylash, himoya qilish va undan oqilona foydalanish eng muhim maqsadlardan biri sifatida qaralishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, *Apiaceae* oilasi o'simliklar orasida alohida o'rin tutadi.

Apiaceae 434 turkum va 3780 ga yaqin turni, jumladan sabzi (*Daucus carota*), koriandr (*Coriandrum sativum*) va kashnichsimon oshlo'k (*Apium graveolens*) kabi muhim sabzavotlarni o'z ichiga oladi [1]. O'zbekistonda esa 70 turkum va 211 turi o'sishi ma'lum.

Apiaceae-(Ziradoshlar)-ikki urug'pallalilar yoki magnoliyasimonlar sinfiga mansub o'simliklar oilasi. Asosan, bir yillik yoki ko'p yillik o'tlardan iborat. Tropik va subtropik mamlakatlarda o'sadigan ayrim turlari buta. Poyasi, asosan, tik o'sadi. Ko'pchiligini barglari murakkab, turli darajada qirqilgan. Gullari mayda, oq, ko'kishsariq yoki och qizil rangli, ko'pincha murakkab soyabonsimon to'pgullarga yig'ilgan. Soyaboni oddiy yoki murakkab, har bir soyabonda bir nechtdan gul o'rnashadi. [8-9].

O'rta Osiyoning tog'li hududlari floralaridagi turlarning areal tiplari bo'yicha taqsimlanishini R.V. Kamelin [10] taklif etgan tasnif asosida amalga oshirish qabul qilingan. Ayni paytda turli tadqiqotchilar o'rganilayotgan floraning joylashgan o'rni, ishning maqsad va vazifalari, turlarning tarkibiga ko'ra ayrim o'zgartirishlar kiritishadi. Xususan, L.S. Krasovskaya va I.G. Levichevlar[7] areal

tiplari kategoriyalarining berilishida iyerarxiya prinsipiga amal qilish lozimligini ko'rsatishadi, ya'ni dastlabki tip hajmi jihatdan keyin keladigan tip tirkibiga kirish kerakligini keltirishadi. R.V. Kamelinning [3,4,5] fikriga ko'ra esa areal tiplarining ajratilishida tur arealining umumiy konfiguratsiyasidan kelib chiqish ma'qulroq va mavjud tasniflarni turlarning ekologik xarakteristikasi, bir-biriga bo'ysunish tizimini qabul qilish orqali murakkablashtirmaslik lozim. Shuning uchun, Surxon qo'riqxonasi florasining geografik strukturasi O'rta Osiyoning tog'li hududlari uchun qulay bo'lgan va umum e'tirof etilgan tavsif bo'yicha amalga oshirildi.[6]

Bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida esa Ko'hitang botanik geografik rayonida 33 turkumga oid 66 ta turi o'sishi aniqlandi. Hozirda Surxon davlat qo'riqxonasida 807 turdagi o'simlik mavjud bo'lib, *Apiaceae* oilasiga mansub o'simliklarning esa 21 turkumga mansub 38 tur o'simlik o'sishi aniqlangan [2].

1-jadval

Ko'hitang bio-geografik rayoni florasining *Apiaceae* oilasiga mansub yetakchi turkumlari.

№	Turkumlar	Soni	
		Turlar	% hisobida
1.	<i>Aphanopleura Boiss.</i>	2	5,88
2.	<i>Aegopodium L.</i>	1	2,94
3.	<i>Kozlovina Lipsky</i>	2	5,88
4.	<i>Ridolfia Moris</i>	1	2,94
5.	<i>Apium L.</i>	1	2,94
6.	<i>Helosciadium W.D.J.Koch</i>	1	2,94
7.	<i>Pseudotrachydium (Kljuykov, Pimenov & V.N.Tikhom.) Pimenov & Kljuykov</i>	1	2,94
8.	<i>Elwendia Boiss</i>	7	20,58
9.	<i>Bupleurum L.</i>	1	2,94
10.	<i>Conium L.</i>	1	2,94
11.	<i>Cuminum Tourn. ex L.</i>	1	2,94
12.	<i>Daucus L.</i>	1	2,94
13.	<i>Elaeosticta Fenzl</i>	4	11,76
14.	<i>Eremodaucus Bunge</i>	1	2,94

15	<i>Eryngium Tourn. ex L.</i>	1	2,94
16	<i>Falcaria Fabr.</i>	1	2,94
17	<i>Ferula Tourn. ex L.</i>	15	44,11
18	<i>Foeniculum Mill.</i>	1	2,94
19	<i>Galagania Lipsky</i>	3	8,82
20	<i>Lipskya Nevski</i>	1	2,94
21	<i>Mediasia Pimenov</i>	1	2,94
22	<i>Semenovia Regel & Herder</i>	2	5,88
23	<i>Oedibasis Koso-Pol.</i>	1	2,94
24	<i>Petroselinum Hill</i>	1	2,94
25	<i>Korshinskia Korovin</i>	1	2,94
26	<i>Pimpinella L.</i>	1	2,94
27	<i>Prangos Lindl.</i>	3	8,82
28	<i>Scandix L.</i>	2	5,88
29	<i>Seseli L.</i>	2	5,88
30	<i>Berula W.D.J. Koch</i>	1	2,94
31	<i>Smyrniium L.</i>	1	2,94
32	<i>Torilis Adans</i>	2	5,88
33	<i>Turgenia Hoffm.</i>	1	2,94

Surxon davlat qo'riqxonasida oilaga mansub *Aphanopleura* Boiss.(1ta tur); *Pseudotrachydium* (Kljuykov, Pimenov & V.N.Tikhom.) Pimenov & Kljuykov. (1ta tur); *Elwendia* Boiss. (7ta tur); *Bupleurum* L. (1ta tur); *Cuminum* Tourn. ex L. (1ta tur); *Daucus* L.(1ta tur); *Elaeosticta* Fenzl. (3ta tur); *Eremodaucus* Bunge.(1ta tur); *Eryngium* Tourn. ex L.(1ta tur); *Falcaria* Fabr.(1ta tur); *Ferula* Tourn. ex L. (7ta tur); *Galagania* Lipsky. (1ta tur); *Lipskya* Nevski.(1ta tur); *Mediasia* Pimenov. (1ta tur); *Oedibasis* Koso-Pol.(1ta tur); *Korshinskia* Korovin(1ta tur); *Prangos* Lindl.(2ta tur); *Scandix* L.(2ta tur); *Seseli* L.(1ta tur); *Torilis* Adans.(1ta tur); *Turgenia* Hoffm.(1ta tur) turkumlar uchraydi.

Bu oilaga mansub ba'zi bir turlar yem-xashak, dori-darmon, qurilish, oziq ovqat, atir-upa va boshqa maqsadlarda ishlatib kelinadi. Hozirgi kun talabida kelib chiqan holda inson ehtiyoji yuqori bo'lgan tur vakillarini alohida yerlarda yetishtirish va tabiatdagi tabiiy popullyatsiyalarni asrash, ularga zara keltiruvchi omillardan himoya qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. McCormick, N. RNA-mediated virus resistance for carrot (*Daucus carota* var. *sativum*) and celery (*Apium graveolens* var. *dulce*). [PhD thesis]. (Melbourne, Australia: University of Melbourne). (2006).
2. Ибрагимов А.Ж. Флора Сурханского государственного заповедника. Автореф.канд.биол.наук, Тошкент-2009.
3. Камелин Р.В. Видовой состав растительного покрова ущеля р. Варзоб. Высшие растения // Флора и растительность ущеля реки Варзоб. – Л.: Наука, 1971. – С. 151-238.
4. Камелин Р.В. Кухистанский округ горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1979. – 117 с.
5. Камелин Р.В. Флорогенетический анализ естественной флоры горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1973. – 353 с.
6. Камелин Р.В., Хасанов Ф.О. Вертикальная поястность растительного покрова хребта Кугитанг (юго-западный Памиро-Алая) // Бот. журн., 1987. – № 1 (72). –С. 49-58.
7. Лим В.П., Ан Э.С. Сурханский государственный заповедник // Экологический вестник. –Ташкент, 2005. – № 4. – С. 38-44.
8. Мукумов И., Ниёзов У., Расулова З. Семейство *Apiaceae* Lindl. во флоре Туркестанского хребта. Вестник НУ УЗ. Ташкент, 2023, 3/1, с. 123-127.
9. Мукумов И.У. Ресурсоведческая характеристика некоторых видов рода *Ferula* L.- источников биологически активных соединений. Автореф.канд.биол.наук, Ташкент, 1993, 18 с.
10. Пославская О.Ю. Геоморфологическая характеристика Сурхандаринской области. // Тр. ТашГУ, вып. 185. – Ташкент, 1961.– С. 3-30.